

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“SAB’AI SAYYOR”DA KOSMOGONIK QARASHLARNING BADIY TALQINI

Marg‘uba Abdullaeva

filologiya fanlari doktori, dotsent, ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Maqolada Navoiyning kosmogonik qarashlari “Sab’ai sayyor” dostoni misolida yoritilgan. Dostonda olam va uning yaratilishi, sayyoralar harakati, kun va tun, to‘rt unsur, yer aylanishi, Quyosh va Oy bilan bog‘liq ko‘plab badiiy tasvirlar mavjud. Bunday badiiy tasvirlarni yaratish uchun ijodkor astronomik bilimlarga, ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lmog‘i shart. Shu maqsadda maqolada Navoiyning kosmik dunyoqarashi badiiy tafakkuri rivojida muhim o‘rin tutgani asoslangan.

Kalit so‘zlar: Navoiy, “Sab’ai sayyor”, doston, kosmogonik qarash, ilmiy bilim, badiiy tasvir, yetti sayyora, quyosh, oy, Mars, Bahrom, ranglar, tahlil.

Аннотация: В статье космогонические воззрения Навои освещены на примере эпоса «Сабай Сайор». Эпос содержит множество художественных образов, связанных со Вселенной и ее созданием, движением планет, днем и ночью, четырьмя стихиями, вращением Земли, Солнца и Луны. Чтобы создать подобные художественные образы, художник должен обладать астрономическими знаниями и научным кругозором. Для этого в статье использован тот факт, что космическое мировоззрение Навои сыграло важную роль в развитии его художественного мышления.

Ключевые слова: Навои, «Сабай Сайёр», эпос, космогонический взгляд, научное знание, художественный образ, семь планет, солнце, луна, Марс, Бахрам, цвета, анализ.

Abstract: The article illuminates Navoi’s cosmogonic views using the example of the epic “Sabai Sayor”. The epic contains many artistic images related to the Universe and its creation, the movement of the planets, day and night, the four elements, the rotation of the Earth, the Sun and the Moon. To create such artistic images, the artist must have astronomical knowledge and a scientific outlook. For this purpose, the article uses the fact that Navoi’s cosmic worldview played an important role in the development of his artistic thinking.

Key words: Navoi, “Sabai Sayyor”, epic, cosmogonic view, scientific knowledge, artistic image, seven planets, sun, moon, Mars, Bahram, colors, analysis.

Bizga ma’lumki, Navoiy 1465-1469-yillarda Samarqandda yashadi. Sulton Abullays madrasasida tahsil oldi. Aniq fanlarga oid yangi bilimlarni o‘zlashtirdi. Ulug‘bek yaratgan rasadxona faoliyati bilan tanishadi. Buni Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida alohida qayd etib o‘tadi. “Yana chun “Sab’ai sayyor” rasadin zamirim bog‘labtur”[5.32] – ya’ni yetti sayyorani kuzatish maqsadida xayolimda rasadxona bunyod etdim, deydi. Bunda Navoiy ko‘kdagi yetti yoritgichni xayolot olamida tasavvur qilgan. Demak, Mirzo Ulug‘bek yaratgan Samarqand va Hirot astronomik muhiti Alisher Navoiyning kosmik dunyoqarashi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Navoiy o‘z asarlarida Ulug‘bek ilmiy merosidan ko‘p o‘rinlarda olam va uning yaratilishi, sayyoralar harakati, kun va tun, to‘rt unsur, yer aylanishi, o‘n

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ikki burj, o‘n sakkiz ming olam haqidagi qarashlarini ifoda etishda foydalangan. Badiiy tasvirni haqiqiy ilmiy tafakkur bilan boyitgan.

“Sab’ai sayyor” dostoni buning yorqin dalilidir. Shu bois dostonidagi kosmogonik qarashlarning badiiy talqinini tahliliy o‘rganishga harakat qilamiz.

“Sab’ai sayyor” dostonining hamd qismidanoq Navoiy kosmogonik bilimlaridan foydalanadi. Ollohga hamd aytar ekan, sen dunyoni barpo etganda samoni yetti gumbaz bilan yaratding, deydi. Yaratuvchiling tufayli yetti osmono‘par qasrlar yulduzlar bilan bezandi. Yetti qasr, yetti donishmand sening hikmatlaring to‘g‘risida afsonalar aytmoqda. Navoiy yetti falakni, yetti laganga o‘xshatib, ularning ichida nur taratuvchi sham bor, deydi. Yetti sayyoraning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, alohida rangi bilan ajralib turadi. Sayyoralarning aylanma harakatlari hafta, oy, yilda o‘zgarib turishi aytiladi. Navoiyning astronomik bilimlari juda chuqur bo‘lib, yetti sayyoraga xos barcha sifatlarni badiiy talqinda ochib berishga xizmat qilgan. Jumladan, tun va kun bo‘lishi, gullarning ochilishi ularning harakatiga bog‘liq. Dastlab shoir quyoshning badiiy tasvirini beradi. Subhi azal sening bilan boshlanadi. Yo‘qlik pardasini sen ochasan. Barcha jahon sen sababli mavjudlik libosini kiyadilar. Tabiatning jilvasi quyosh nuridan bahra olib, turfa go‘zalliklarni yuzaga keltirishi tasvirlanadi. Dostonning hamd bobida Qo‘yosh sayyorasi tasviri bilan Olloh madhi uyg‘unlik kasb etgan.

Dostonning 3 bobi na’t bo‘lib, unda rasululloh Muhammad alayhissalomni Navoiy quyoshga tenglashtiradi. Qorong‘ulikni ravshan etgan ulug‘ nur sifatida talqin qilgan. Martabasini Zuhul (Saturn) sayyorasining to‘qqiz ayvonidan ham baland ekanini tasvirlaydi. 4-bobda Payg‘ambarimizning Buroq otida osmonga ko‘tarilgani tasvirlarida Navoiy bir qancha sayyoralar nomini keltirib o‘tadi. Tulpor shu qadar uchdiki, Utorud (Merkuriy) yulduziga yashinday yetib, uning kumushrang tosh qalamini sindirdi. Zuhra (Venera) esa ohanggi vahmidan o‘z changini yashirdi. Bu sayyora atrofi doimo chang bo‘lib turishi ham Navoiy e’tiboridan chetda qolmagan. Quyosh ushbu yulduzni ko‘rib, yerga kirib ketdi. Bahrom (Mars) uning savlatidan qilichini qiniga soldi. Mushtariy (Yupiter) o‘z minbaridan tushdi, yuzini uning g‘o‘boridan nurli qildi. Zuhul (Saturn) asboblarini birma-bir maydonga hozirladi. Bundan ko‘rinadiki, Navoiy hamd va na’tni ham sayyoralar bilan bog‘lab, doston mazmuniga hamohang tasvirlaydi.

Navoiy “Sab’ai sayyor” dostonini yaratishda Mirzo Ulug‘bek yaratgan ilmiy merosdan samarali foydalandi. Jumladan, dostonning Sulton Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlangan IX –bobida yetti sayyora – Zuhul, Mushtariy, Bahrom, Mehr, Zuhra, Atorud, Qamar haqida alohida to‘xtalib o‘tadi. Bu sayyoralarning xususiyatlaridan kelib chiqib, mumtoz badiiy tasvirlarni yaratadi. Dostonning 9 bobi Sulton Husayn

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Bahodirxon madhiga bag‘ishlangan. Navoiy shohni madh etishdan oldin falakka iltijo qiladi.

Ey falak, xizmat oshkoro qil

Mehrning safhasin muhayyo qil [2.66].

Yana sayyoralarga murojaat qiladi. Zuhaldan siyohdonini to‘ldirishni, Mushtariydan qalam uchini tozalashini, Bahromdan qilichini qinga solishni, Quyoshdan sahifalarining yuzini porloq qilishni, Zuhradan bir lahza sozini chalmaslikni, Utoruddan ostonasini o‘pib, qog‘oz va qalam solingan xaltachasini oldiga qo‘yishini so‘raydi. Oydan qalamtaroshi bilan qalami uchini o‘tkirlashini istaydi. Shundan keyin shoh madhiga o‘tadi. Jumladan:

Zuhra, bir lahza cholma soz oxir,

Chekmagil lahmi dilnavoz oxir [2.66].

Dostonning 10 bobida osmon gumbazi 9 qavatdan iborat ekani tasvirlanadi:

Tah-batah pardalar aro parda,

Bir-bir ichra to‘qiz saroparda [2.74].

To‘qqiz qavat osmon yulduzlar bilan bezatilgan. Malaklar ularni saroy egasi kabi aylanib yuradi. Falak osmonining taxtida Mohpaykar – Oy bor. Bu Oy Sulaymon payg‘ambarning yori Bilqisdir. Bilqisning yuzini quyoshga o‘xshatadi. Navoiy ikki baxt yulduzi sifatida Oy bilan Quyoshni tasvirlaydi.

Navoiy dostonning 11 bobida Shoh Bahromni tasvirlar ekan, butun osmon ostidagi yer dargohi, Suhayl yulduzi uning tole‘i ekanini aytadi. Yaman o‘lkasi bu yulduz nuridan tuprog‘i mu‘attar, har bir toshi aqiqdek edi. Bahromning adolatli siyosati bilan yetti iqlim sakkiz jannat kabi obod bo‘lganini tasvirlaydi.

Ey Navoiy ne bo‘lsa, guftoring,

Ayla bunyodkim, Xudo yoring, [2.84] - deya yetti bo‘stonning majlisini bezatish nasib etganiga shukrona aytib, dostonning asosiy qismi bayoniga o‘tadi.

Bahrom — Mars sayyorasining forscha nomi. Arablarda “Mirrix” deb ataladi. Rangi qizil. Bu sayyora jang va qahramonlik ramzi bo‘lib, unda dostondagi Bahrom shoh xarakteriga ham ishora bor. Mazkur syujet xalq og‘zaki ijodidagi “Bahrom Go‘r” haqidagi afsona, Firdavsiyning “Shohnoma”sida “Bahrom va Ozoda”, Nizomiyning “Haft paykar” dostonida “Bahrom va Fitna”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht behisht” dostonida Bahrom va Dilorom nomlari bilan kelgan. “Sab‘ai sayyor” dostoni yetti hikoyat asosiga qurilgan. Bu hikoyatlar yetti sayyora bilan bog‘liq tasvir etilgan. Sayyoralar nomi yettita, yetti kun, yetti iqlim, yetti musofir, yetti rang dostonning o‘ziga xos badiiy kompozitsion tizimini tashkil qiladi.

Har birin o‘zga nav’ etti rang,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Bo‘ladi ul yeti qasr yetti rang [2.151].

Shanba kuni homiysi Zuhul (Saturn) sayyorasi qora rangda; hindistonlik Farrux va Axiy haqidagi hikoyat. Dastlab, bu sayyoraning xususiyatlariga to‘xtalsak:

Zuhul (Saturn) quyosh sistemasidagi 9 ta katta sayyoralardan biri. Quyoshdan uzoqligi bo‘yicha oltinchi sayyora. Kattaligi jihatidan Yupiterdan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi. Zuhul (Saturn) quyosh atrofini o‘z orbitasi bo‘ylab 29 yilu 167 kunda bir marta aylanib chiqadi. Saturnning [ekvator](#) tekisligi bo‘ylab joylashgan halqalar, asosan, 3 ta alohida konsentrik halqadan iborat. Ulardan sayyora eng yaqini S, o‘rtadagisi V hamda tashqisi A bilan belgilangan. Hamma halqalar deyarli shaffof. Ular orqasidagi yulduzlarni bemalol [ko‘rish](#) mumkin. A [halqa](#) bilan V halqa oralig‘ini [Kassini](#) nomli qora bo‘shliq tashkil etadi. Saturn 22 ta tabiiy yo‘ldoshga ega. Ulardan eng kattasi Titan hisoblanadi. Titan kattaligi jihatidan Quyosh va Oydan ham katta.

Demak, Navoiy bu qasrni qora rangda tasvirlashiga ilmiy asos bor. Navoiy Saturnning A va V halqalar orilig‘idagi [Kassini](#) – qora bo‘shliq haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lgan. Shu bois Bahromning ishq-ayriliq dardida hayotining zulmatga aylanishi, chorasizligini [Kassiniga](#) – qora bo‘shliqqa o‘xshatgan. Navoiy Bahrom obraziga Saturn sayyorasining muhim sifatlarini ko‘chirgan. Bahrom ham Saturn kabi eng katta kuchga ega yetti iqlim hukmdori. Zuhul – Saturn sayyorasi yettinchi osmonda, rangi qora. Badiiy adabiyotda u yuksaklik ramzi sifatida qo‘llanadi. Saturn halqalari, Bahromning atrofidagi ishonchli insonlar. Ular podshohning ayriliq dardidan qutulishi uchun har qanday ishni qilishga tayyor. Yetti qasr ham shu sabab barpo etildi.

Navoiy sayyoralar harakati orqali insonlarning o‘z maqsadlariga yetishuvini niyat qilgan. Navoiy Moniy hikoya qilib bergan o‘yinchi go‘zal mahvashni Zuhra va Mushtariy yulduzlariga o‘xshatgan. Vaqtshunos olimlar yulduzlarga qarab, yaxshi vaqtni belgiladilar. Shanba kuni tongda qora qasrga kirib, may ichsa qutlug‘ bo‘lishini aytdilar. Shunga ko‘ra Bahrom qora qasrda may ichib tongni qarshiladi. Ishq azobidan qalbi kuygan, ustiga palos yopib, yorini axtargan Farrux va Axiy hikoyati Zuhul (Saturn) sayyorasining qora rangi bilan uyg‘un tasvirlangan. Qora rangdagi Zuhul (Saturn) sayyorasi buyuklik, jasorat timsoli. Navoiy sayyoraning bu sifatlarini hikoyat qahramonlari xarakteriga singdirib yuborgan. Farrux va Axiyning ishq yo‘lidagi mashaqqatlari, bir-birlariga ko‘rsatgan jasoratlari misolida talqin etiladi.

Yakshanba kuni homiysi Quyosh sayyorasi sariq rangda; rumlik Zayd Zahhob haqidagi hikoyat.


Quyosh sayyorasi xususiyatlari. Quyosh massasining 72 foizi vodorod va 26 foizi geliydan iborat. Qolgani arzimas miqdordagi boshqa elementlardir. Har soniyada 700 million tonna vodorod yonib, geliyga aylanadi. Shunday sayyoralar va ularning

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

yo‘ldoshlari borki, ularning ayrim qismlariga quyosh nurlari uzluksiz tushib turadi, ya’ni o‘sha hududlarda tun bo‘lmaydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, Quyosh o‘zining o‘rta yoshini yashamoqda. Quyosh borgan sari issiqroq va yorqinroq bo‘lib bormoqda. Vaqtlar o‘tib u o‘n marta yorqinlashishi mumkin. Faqat buning uchun taxminan milliard yil kerak bo‘ladi. Astronomlar ma’lumotlariga qaraganda, bu yulduz paydo bo‘lganiga 4,5 milliard yil bo‘lgan va yana taxminan 5 milliard yildan keyin u yonib bitib, avval qizil gigantga, keyin oq karlik yulduzga aylanadi.

Quyoshning sariq ranggi – asarda birinchidan, sevgi-muhabbatidan ayrilgan oshiq – Bahromni tasvir etishni nazarda tutsa, ikkinchidan, zargar obrazini yaratishga asos bo‘lgan. Ishq azobidan ranggi sarg‘aygan oshiq, mohir zargar va oltinning rangi Quyosh sayyorasining xos xususiyatlarini o‘zida namoyon etadi. Yakshanba kuni Bahrom sariq rangli qasrda quyoshdek zar tikilgan kiyimlar bilan hikoyat tinglagani bayon etiladi. Bahromning quyoshrang libosda nur sohib turgan quyoshga o‘xshatilishi, sap-sariq rangdagi may ichishi Quyosh sayyorasi bilan muvofiq ishlangan. Rumlik Zayd Zahhob haqidagi hikoyat mazmuni ham sayyora sifatleri mos tanlangan.



Bu rasmda 9 ta sayyoraning joylashuvi ko‘rsatilgan. Shundan uchinchi sayyora Yer. Eng katta sayyora – Quyosh. Quyosh yorqin nur sochuvchi hisoblanadi. 9 sayyora Quyoshdan turli uzoqlikda joylashgan. Unga eng yaqini Merkuriydir. Quyosh sistemasidagi, umuman butun koinotdagi sayyoralar va yulduzlar ma’lum bir qoidaga asosan harakatlanadi. Olimlar esa mazkur holatga quyidagicha izoh bergan: osmon jismlarining barchasi tartib bilan qandaydir kuchga bo‘ysunib harakatlanadi.

Dushanba kuni homiysi Oy sayyorasi yashil rangda; misrlik sayyoh Sa’d haqidagi hikoyat. Oy sayyorasi faqat bir tomoni bilan yerga qarab turishini bilamiz. Shuning uchun Oyning yarmi bizga ko‘rinmaydi. Oy o‘z o‘qi atrofida va Yer atrofida aylanadi. Oy sayyorasi Yerning yo‘ldoshi. Oy Yer atrofida, Yer esa Quyosh atrofida aylanadi. Oy

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

29,5 kecha-kunduzda Yer atrofini bir marta to‘liq aylanib chiqadi. Qadim zamonlardan odamlar Oyni tun ilohasi deb hisoblashgan va unga sig‘inishgan. Xalqimizda “Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u” degan naql ham Oy sayyorasining astronomik xususiyatidan kelib chiqqan. Oy Quyosh va Yerning o‘rtasida bo‘lgan payti Oyning chiqishiga to‘g‘ri keladi. Yangi Oy ko‘zga ko‘rinmaydi. So‘ngra Oyning Yerga qaragan tomoniga Quyosh nuri tusha boshlaydi. Quyosh nuri tushgan joy aylananing ingichka qismi bo‘lib, bizga ko‘rina boshlaydi. Shu harakat orqali Oy to‘lishadi. Oy to‘lishibdi, yangi oy chiqibdi, degan fikrlar shu sababli kelib chiqqan.

Oy sayyorasidagi yashillik – bahor rangidek ko‘k (yashil) libos kiygan Bahrom yashil saroyda sabzarang libos kiygan sarvqomat bilan zumrad jomda hayot suvini ichgani va Xizr kabi abadiy hayot kasb etgani tasvirlanadi. Bob sarlavhasidanoq Oy sayyorasiga xos sifatlarga e‘tibor qaratadi va uchinchi iqlimdan kelgan musofir hikoyati bilan asoslaydi. Shu o‘rinda, Navoiy yashil rang orqali takrorlanmas badiiy tasvirlarni ishlab chiqqan:

- bahor rangidek ko‘k;
- yashil saroy;
- sabzarang libos;
- zumrad jom;
- tiriklik;
- abadiy hayot.

Bu jumalarning barchasi yashillik, yasharish, yangilanish, tiriklik, yashovchanlik mazmunini ifoda etadi. Shu barobarida Bahromning ko‘nglida o‘z sevgisiga umidvorlik, yashovchanlik tuyg‘ularini uyg‘otishga xizmat qiladi. Hikoyat ham aql, zako va qahramonlikning g‘alabasi bilan tugallanadi.

Seshanba kuni homiysi Mirrix (Mars) qizil rangda; Dehlidan Shoh Juna va Mas‘ud haqidagi hikoyat. Bu sayyora qadimgi Rim mifologiyasidagi urush xudosi — [Mars](#) sharafiga shunday nomlangan. Mars atmosferasi siyrak bo‘lgan [ichki sayyora](#) bo‘lib, uning po‘sti asosan [Yer po‘stiga](#) o‘xshash unsurlardan, shuningdek, [temir](#) va [nikeldan](#) iborat yadrodan tashkil topgan. Mars sathini [zarba kraterlari](#), vodiylar, cho‘llar va [qutb qalpoqlari](#) egallagan. Shuningdek, uning [Phobos](#) va [Deimos](#) nomli ikkita yo‘ldoshi bor.

Navoiy hikoyatda saxovatli va adolatli hukmdor Mas‘udning ishlari ibrat qilib ko‘rsatilgan. May tugamaydigan jom, go‘zal qiz va Gulgun laqabli otni Ma‘sud Junaga in‘om qildi.

Chorshanba kuni homiysi Utorud (Merkuriy) moviy rangda; Adanlik Mehr va Suhayl haqidagi hikoyat. Merkuriy yoki Utorud – Quyosh sistemasidagi Quyoshga eng

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

yaqin sayyora. Merkuriy [Quyosh](#) chiqishi oldidan va botgandan so‘ng uning yaqinida ko‘rinadi. Merkuriyning Quyosh atrofida aylanish davri 88 sutka. Merkuriy grek-yunon mifologiyasi bo‘yicha savdo sotiq xudosi, arablarda esa Utarud deb ataladi.

Payshanba kuni homiysi Mushtariy (Yupiter) jigarrang (infraqizil) rangda; Voxtarlik Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyat. Mushtariy sayyoralari ichida eng ulkani bo‘lib, uning hajmi Yernikidan 1300 marta kattadir. Unga oddiy ko‘z bilan boqqaningizda ham, garchi u Yerga 587 000 000 km masofadan yaqin kelmasa-da, yorqin va go‘zal tomoshaning guvohi bo‘lishingiz shubhasiz. Mushtariyning yana bir qiziq tomoni shundaki, uning yuzasida tez-tez kishini lol etadigan ranglar paydo bo‘ladi. Uning ikkita belbog‘i qip-qizil rangdan malla, kulrang, hatto, ko‘kimtir ranggacha o‘zgarib turadi. Bu Mushtariyning Quyosh atrofida aylanishi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak, degan taxmin bor. U Quyosh atrofida 12 yilda bir marta aylanib chiqadi, ranglar o‘zgarishida ham 12 yildan iborat davriylik bor.

Quyosh tizimining ikkinchi guruh sayyoralari Yupiter, Saturn, Uran va Neptunlar hisoblanadi. Bu sayyoralarning barchasi gigant sayyoralari va ulardan Yupiter (arablarda Mushtariy) Quyoshdan beshinchi o‘rinda joylashgan bo‘lib, uni “sayyoralari qiroli” deb atashadi. U barcha sayyoralari ichida eng kattasi va o‘z o‘qi atrofida tez aylanuvchi sayyora hisoblanadi. Bu sayyora juda qadim zamonlardan odamlarga ma‘lum bo‘lgan. Yunonlarda Zevs, rimliklarda Yupiter (momaqaldiraq xudosi) nomi bilan atalgan.

Juma kuni homiysi Zuhra (Venera) oq rangda. Xorazmlik musofirning hikoyati. Navoiy Venera sayyorasiga xos xususiyatlarga ham diqqat qaratgan ko‘rinadi. Chunki Zuhra Yerga qiyoslaganda jahannamning naq o‘zi. Uning atmosferasi 96% karbonat angidridan iborat bo‘lib, o‘ta kuchli issiqxona holati hukmron. Bahromning ishq tufayli ichi yongani, ishq dardi bilan kuygani yuksak pafosda tasvirlanganga o‘xshaydi. Qadimda Venera sevgi xudosi hisoblangan. Shu bois Navoiy dostonning yettinchi hikoyatini oq qasrda murodlar hosil bo‘lgan kun – sevgi tantanasi sifatida talqin qiladi. Bu tasvirlarni yaratishda Navoiy sayyoraning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslangani aniq.

Dostonda Navoiy sayyoralari haqidagi mifologik tasavvurlar va xalq og‘zaki ijodidagi talqinlariga ham e‘tibor qaratgan. Barcha sayyoralari nomlari yunonlar va greklar mifologiyasi xudolarining nomlaridan olingan. Merkuriy grek-yunon mifologiyasi bo‘yicha savdo sotiq xudosi, arablarda esa Utarud deb ataladi. Venera nomi sevgi xudosi sharafiga qo‘yilgan (arablarda u Zuhra nomi bilan ataladi), Uran - osmon xudosi, Neptun - dengizlar xudosi, Saturn - dehqonchilik xudosi, (arablarda Zuhal), Yupiter – momaqaldiraq xudosi (arablarda Mushtariy), Mars - urush xudosi (arablarda Mirrix) deb nomlangan.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Xulosa qilib aytganda, “Sab’ai sayyor” dostonidagi kosmogonik qarashlarning badiiy talqinini o‘rganish o‘quvchining dunyoqarashi, tasavvur olami, ilmiy tafakkuri, umuminsoniy sifatlari va ma’naviy kamolotini shakllantirishga xizmat qiladi. “Xamsa”ning boshqa dostonlarida ham kosmik olam va astronomik asboblari haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu ham alohida tadqiqni talab qiladi. Navoiyning Samarqanddagi davrida aniq fanlarni o‘rganishi va shu asosda badiiy asarlarini yaratishda bu bilimlardan unumli foydalangani dostonlarning ilmiy qimmatini oshirishga hamda asrlar davomida qiziqish bilan o‘qilishiga sabab bo‘lgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. O‘n jildlik. Yettinchi jild. G‘afur G‘ulom. – Toshkent: 2020.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. Sab’ai sayyor. Tamaddun. 2021. – 448 b.
3. Xasanov S. Navoiyning etti tuxfasi. – T.: Gafur Gulom. 1991. – 192 b.
4. Rustomov A. Navoiyning badiiy ma’xorati. – T.: Adabiyot va san’at. 1979.
5. Alisher Navoiy. Muqammal asarlar to‘plami. Muhoqamat ul-luqatayn. 15 tomlik. XIV-tom. – T.: 1966. 32-bet.
6. Azizov S. Alisher Navoiy asarlarida falaqiyat sirleri. – Toshkent: Uzbekiston. 2018. – B. 3.
7. ASADOV, M., & JAMOLOVA, S. (2022, February). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF LOVE IN THE POETRY OF ALISHER NAVOI. In Conference Zone (pp. 331-333).
8. Asadov, M. (2022). Artistic image possibilities and interpretation of perfection. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(9), 126-130.
9. Asadov, M. (2022). Some Comments Concerning Navoi’s “Sakinama”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(1), 178-182.